

BOLA TARBIYASIDA OILANING O'RNI HAQIDA MUTAFAKKIRLAR TA'LIMOTI

Saidova Kamila Amanulla qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy psixologiya
yo'nalishi 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bola tarbiyasida oilaning tutgan o'rni, oila tarbiyasi, sharq mutafakkir allomalarining bola tarbiyasi haqidagi qarashlariga bag'ishlangan bo'lib oilaning mustahkamligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ma'naviy barkamol shaxsni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash, milliy va madaniy qadriyatlarimizni asrab avaylash.

Jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblangan ota-onasiga va bola, er-xotin, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar aynan oila negizida yuzaga keladi. Shuning uchun ham qadim zamonlardan boshlab oila, undagi munosabatlar masalalari har bir davrning donishmand, olim, mutafakkirlari tomonidan o'rganilib kelinganligini va ularning qarashlarida bu masalalarning yoritilganligini kuzatamiz. Bu qarashlarni, fikrlarni sizning hukmingizga havola etish orqali oila, o'zaro munosabatlar muammolari bizning hayotimizda doimo muhim masalalar sirasiga kirishini qayd etamiz. Inson va insoniy munosabatlar, shaxs va alohida uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg'or kishilar, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazida asosiy masalalardan bo'lib kelgan. Sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Xotam ibn Tay, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin, Muqimiyy, Furqat, Zavqiy, Uvaysiy, Nodira, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko'plab olim va yozuvchilar bu masalalar yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgi zamon fani uchun ham katta ijtimoiy va mafkuraviy ahamiyatga egadir. Ularning asarlarida oila va oilaviy munosabatlarga ham asarlarini e'tibor berilgan, shuning uchun biz yuqorida buyuk mutafakkirlarning ayrim pedagogik va psixologik qarashlari yoritilgan tahlil ekanligini etish orqali o'quvchilarga mazkur muammolarning naqadar dolzarb bayon etish mumkin. Sharq mutafakkirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-onasi va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi

va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor bergenlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar- halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda namoyon bo'ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ular jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy- axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab bergenlar. Zardushtiylikning qadimiy kitobi - "Avesto"da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er va xotinning teng mas'ulligi, farzand tarbiyasi to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan. Oilaning tinch va farovon bo'lishi nimalarga bo'g'liq ekanligi haqida esa: "Porso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o'rin ajratib bersa, uyida noz-ne'matlari muhayyo bo'lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqod, sobit olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, usha manzil muhtaramdir", -deb yozilgan. Bu kitobda ko'rsatilishicha, oilada ota yetakchi bo'lgani ma'quldir. SHuningdek, unda ifodalangan oila va oilaviy munosabatlarga hamma rioya etishi lozim bo'lgan. Eng ahamiyatli jihat shundaki, unda er-xotinni o'zaro sodiq, g'amxo'r, mehribon bo'lishlari lozimligi va ayolning haq huquqini himoya qilish o'sha davrda ham qonun darajasiga ko'tarilgani ma'lumdir. Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Ular "Nasihatnama", "Pandnama", "Hikmatnama", tarzida bizgacha yetib kelgan. Bu manbalarda qizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, oila muqaddas, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog'liq ekanligi haqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar hikoya qilinadi. Shunday kitoblardan biri turk olimi Yusuf Tovasliy to'plagan "Hikmatlar xazinasi"dir, unda kelin bo'luvchi qizga beriladigan ona o'giti kishining diqqatini o'ziga tortadi. Unda ona uzatilyotgan qiziga quyidagilarni nasihat qiladi:

"Bolajonim, sevikli qizim, meni yaxshilab tingla. Nasihat har kimga lozimdir, o'git hammaga zarurdir. Nasihat bilmaganga o'rgatadi, bilganni esiga soladi. Allah bergen qonunga ko'ra, hayotga qadam qo'yadigan har bir erkak ayolga muhtoj bo'ladi. Erkaklar ayol uchun, ayollar erkak uchun yaratilgandir. Hayot mavjud ekan, bu qonunni hech kim biuza olmaydi.

Shu sababli, sen tug'ilib o'sgan va voyaga yetgan uyingdan, yayrab-yashnab, o'ynab-kulib yurgan yeringdan chiqib, o'zing bilmaydigan, notanish uyga borasan. Kelajakda bu uy senikidir. Sen eringga shunday xizmat qilki, ul ham senga qul bo'lsin! Bolalarni kamtarlik va donolikka o'rgatishda buyuk o'zbek mutafakkiri Abu Ali ibn Sino kabi olimlarimizning hayot namunalari va bizga meros qilib qoldirgan durdona fikrlarini asos qilib olish foydalidir. U manmanlik, maqtanchoqlik va o'zidagi bilimga ortiqcha baho berish kabi xususiyatlarni kishining axloqi past

ekanligini ko'rsatuvchi belgilar deb ta'kidlaydi. Uning fikricha oilada bola yoshligidan boshlab faqat yaxshi odatlarga o'rgatilishi kerak. Bu esa unda mustahkam xarakter shakllanishiga zamin yaratadi. Ibn Sino yosh bolalarni yaxshi axloqli jismoniy sog'lom qilib yetishtirishda ko'pgina foydali usullarni ko'rsatib beradi. U tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo'lish usuli g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligi qayta-qayta uqtirib o'tgan. Ibn Sino oilaviy tarbiya to'g'risidagi fikrlarning chuqur mazmunini va amaliy ahamiyatini uning quyidagi so'zlaridan bilib olish mumkin. Bolaning xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak. Unga esa bolalarni qattiq g'azablanishdan, qo'rqish, xafalik, uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Bolani xohlagan va foydali narsasini darhol topib berishga hamda sevmagan narsasini ko'zdan uzoqlashtirishga doim tayyor bo'lib turish kerak. Bu ishning ikki xil foydasi bor. Bir tomondan bolaning ruhiga foyda qiladi, bolada eng yosh chog'ligidanoq xushhulq odam bo'lib qoladi. Ikkinci tomondan, bolaning tanasiga foyda qiladi. Chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlariga sabab bo'ladi. Shuningdek, agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Ibn Sino o'zining "Tadbirul manozil" asarining katta bir bobini oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlagan. U bu asarida kishilarning oilaviy munosabatlarning deyarli hamma tomonlarini ko'rib chiqadi. U oila boshlig'i oldiga katta talablar qo'yadi, u oilaviy tarbiyani ham amaliy, ham nazariy tomondan yaxshi bilish zarurligini uqtiradi.

Mutafakkir olim Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida ota onalar va tarbiyachilar obro'yining bolaga ta'sir kuchi haqida ham fikr yurgizadi. Bu esa hozirgi talablarga ham javob beradi. U ota-onalarning bolalarga tarbiyaviy ta'sirining bor kuchi obro'ga asoslanadi, deydi. Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyat, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamenti oshirish talabini qo'yadi.

Ta'lrim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s.): "Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar. Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda "Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring" deb ta'kidlangan.

Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg‘ulariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo‘lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o‘tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo‘lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o‘ta e’tiborli bo‘lish lozim. Yoshlarning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o‘z umri va salohiyatini bag‘ishlagan allomalarimizning asarlarida sog‘lom avlod tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarga alohida o‘rin berilgan.

Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, uni ma’rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e’tibor bergenlar.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, shuni aytish mumkinki, ham ma’nana, ham jismonan yetuk shaxsni kamol topishida oilaning o‘rni beqiyosdir. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev quyidagi fikrni bildirgan, “Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qaerda ishlashidan qat’i nazar, kim bo‘lishidan qat’i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e’tibor bermasa, hech qachon natija bo‘lmaydi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Mirziyoyev .Sh. M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – T.: “O‘zbekiston “ nashriyot – matbaa ijodiy uyi , 2019
- 2.Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz . – T. : “ O‘zbekiston “, 2017. – 592 b.
- 3.Mirziyoyev .SH.M.Buyuk kelajagamizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz . – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
- 4.<https://www.gazeta.uz/uz/.2018/07/25>.